

## MAKTABLARDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA SHEVA VA “KO‘CHA” GAPLARINING TA‘SIRI

**Kurbanbayev Otabek Xakimbek o‘g‘li**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o‘zbek tili kafedrasida stajor o‘qituvchisi*

**Sattarov Aydogdi**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili  
yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamalakatimizda o‘zbek tilini o‘qitishga e’tibor, o‘zbek tili o‘qitishning dolzarb muammolari, dars jarayonlarini yangi metodlar orqali tashkillashtirishning ijobiy tomonlari haqida hamda maktablarda ona tili darsliklaridagi kamchiliklar va sheva va “ko‘cha” so‘zlarini qo‘llanilishi ochib beriladi.

**Tayanch tushunchalar:** ona tili, darslik, metod, davlat tili, pedagog, qadriyat, lug‘atlar jamlanmasi.

Diyorimizda ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilgan. Davlatimiz, yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda pedagoglarning o‘rni katta. Ayniqsa mamalakatimiz tili bo‘lmish o‘zbek tiliga nisbatan yosh avlod qalbida iftixor, g‘urur uyg‘otishda ona tili o‘qituvchisi katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ona tili va adabiyot o‘qituvchisiga katta talablar qo‘yilgan. Umuman olganda pedagog xodimlar yelkasida katta mas’uliyat bilan yosh avlodni vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashi lozim. O‘tmishda yaratilgan noyob Darhaqiqat, har bir inson o‘zining qadim an’analari, qadriyatlarini mujassamlashtirgan tilini sevib ardoqlashi lozim. Shu o‘rinda aytish joizki, Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” gi Qarori o‘zbek tiliga bo‘lgan ehtiromning namunasidir.

Ona tili o‘qitishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish va yangi metodlardan foydalangan holda tashkillashtirish bugungi kun talabidir. Ammo ko‘plab maktablarda dars jarayonlari hali ham an’anaviy tarzda davom etib, eskicha tarzdan voz kechilmayabdi. Bu jarayonlar bizga uncha achinarli holat bolmasligi mumkin ammo, Davlat tiliga katta e’tibor qaratilayotgan bir davrda maktablarda dars adabiy o‘zbek tilida olib borilmasligi ayanchli holatdir. Bu albatta hudud nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda bo‘ladi. Dars jarayonlarida juda ko‘plagan adabiy til bilan bo‘lgan kamchiliklar ham mavjud. Bular orasida eng dolzarbi bu darslarda shevalardan foydalanishdir. O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida o‘quvchilarga o‘z shevasida dars o‘tishi bu shubhasiz o‘quvchining ham o‘z shevasida erkin gapirishiga yo‘l ochadi. Davlat tilini sof adabiy tilda gapirmasdan o‘tish bu katta xatodir. Buni

tuzatmasdan turib dars faoliyatini yuritish bugungi zamon talablariga muvofiq kelmaydi. Misol uchun, Xorazm viloyati hududlarida 90-95 foiz darslar asosan shu hudud shevalarida olib boriladi. Toshkent shahri va tumanlarida ommalashib borayotgan “ko‘cha” gaplari maktablarni ham uning muhitini ham buzmoqda. O‘quvchilar uchun adabiy tilda gapirishdan ko‘ra o‘zining shevasi yoki o‘zining “ko‘cha” gaplari asosiy til bo‘lib qolmoqda. Bu adabiy tilimiz, turkiyligimizga, milliylikimizga kata ta’sir qilmoqda. Bunday vaziyatda katta yuk pedagoglarimiz qo‘lidadir. Bundan qanday chiqib ketishimiz mumkin. Avvalo darslarimizni to‘g‘ri uslubda shakllantirishimiz kerak. Maktab darsliklarini 5- sinfda to 11- sinfgacha bir-biriga qiyoslab solishtirilsa qoidalarda ko‘plab xatoliklar mavjud. Bu xatoliklar o‘quvchilarda tilni o‘rganish jarayonida qiynalishlariga sabab bo‘ladi. Misol uchun, 5-sinf ona tili darsligida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari to‘rt xil deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, 10-sinf ona tili darsligida faqat uchtasi haqida ma‘lumot berilgan. 5-sinf ona tili darsligida ilmiy va kasbiy atamalar deyilgan mavzu bor. 10-sinf ona tili darsligida esa ilmiy atamalar terminlar deb atalyapti. Yangi yaratilayotgan darsliklardagi berilgan lug‘at so‘zlar asosida biror bir qo‘llanmaning yaratilmaganligi hozirgi maktablardagi eng dolzarb masala sanaladi. 2019-2020- o‘quv yili boshida 8-9-sinflarning darsliklari yangilandi. Yangilangan ona tili darsligiga e’tibor bersak, ko‘plab matnlar va o‘sha matnlar asosidagi lug‘atlar berilganligini ko‘ramiz. Ba’zi lug‘atdagi so‘zlarni o‘zimiz zo‘rg‘a topib, o‘quvchilarga yetkazamiz. Lekin o‘quvchilar bu lug‘at so‘zlarning ma‘nosini qayerdan topishadi? Ularning izlanishlari uchun ham biror bir darsliklarga asoslangan lug‘atlar jamlanmasini yaratish vaqti kelmadimikan?[2] Aynan punktuatsion belgilarni o‘rgatishda ham darslikda katta muammolar mavjud. Umumiy darsliklarga e’tibor qaratsak tinish belgilarining ayrimlari haqida ozozdan ma‘lumot berilgan. Ko‘plab tinish belgilari haqida deyarli aytilmagan ham. O‘quvchilar ayrim tinish belgilarini qay o‘rinda qo‘llash haqida qisqacha bo‘lsa ham ma‘lumotga ega emaslar.<sup>1</sup>

Biz, “Maktabda ona tilini fan sifatida o‘qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy zaruriyatlari. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko‘ra to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o‘ta

<sup>1</sup> N. Shayxislomov „Ona tili fanini o‘qitishning muammolari“ mavzusidagi maqolasidan. Science and Education 2020

muhim vazifa bo‘lib turgan bir sharoitda bu fanning o‘qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda “Ona tili” ni o‘quv fani sifatida o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o‘tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so‘zlasha olishga qay darajada tayyorlashaniga bog‘liq. Chunki so‘z qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak qudratga ega bo‘lgan. Jamiyat rivojlangan sari xalqning madaniyat darajasi ortib boradi. Madaniy hayotning rivoji avvalo jamiyat a‘zolarining madaniy so‘zlashuvga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi bilan belgilanadi. Yoshlarda yuksak nutq odobini tarbiyalash maktab ona tili kursi zimmasiga tushadi” degan shaklga qarshi borib maktablarda asosan qoida yodlatish va uni bittama bitta so‘rab olishdan haliyam o‘imizni tiymadik.

O‘zbek tilshunosligidagi asosiy nuqsonlardan biri — til hodisalarini bevosita faktlardan kelib chiqib baholamaslikdir. O‘zbek tili hodisalarini yoritish va ta’riflashda bevosita shu til asosidagi tahlildan kelib chiqmay, rus tiliga oid ilmiy adabiyotlar, grammatikalardan nusxa olib, o‘zbek tilidan ularga misol keltirish yo‘li bilan ish olib borilyapti. Bunday yo‘l bilan ishlash o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘la va to‘g‘ri yoritishga imkon bermaydi. Chunki o‘zbek va rus tillari butunlay boshqaboshqa turkumga oid tillar bo‘lib, tuzilish jihatidan o‘ziga xosliklarga ega. Binobarin, rus tiliga oid adabiyotlarda, masalan, kelishikning olti turi qayd etilar ekan, o‘zbek tilida ham oltita kelishik bor demasdan, uning nechta ekani va har bir kelishikning mohiyati shu til dalillarining tahlili asosida belgilanishi lozim.<sup>2</sup>

Xulosa qilibshuni aytish mumkinki, ona tili o‘qituvchisi dars jarayonida barcha o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga qaratgan holda dars jarayonini olib borishi va yosh avlod qalbida davlat tiliga bo‘lgan hurmatni shakllantirishi, ona tiliga nisbatan muhabbatni uyg‘otishi lozim. Chunki o‘quvchida fanga nisbatan qiziqish va mehr o‘qituvchi orqali uyg‘onadi, o‘quvchi fanni o‘qituvchi orqali tushunadi va anglaydi. Shu sababli ham bu borada pedogoglardan katta mahorat va mas’uliyat talab qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N. Shayxislomov „ Ona tili fanini o‘qitishning muammolari“ mavzusidagi maqolasidan. Science and Education 2020
2. A. Hojiyevning „ Muammolar bir talay“ maqolasidan. “Guliston” jurnali 1989-yil 8-son

---

<sup>2</sup> A. Hojiyevning „ Muammolar bir talay“ maqolasidan. “Guliston” jurnali 1989-yil 8-son